



UO'K:355:323(09)

Baxtiyar KARSHIYEV,

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent, Fan va texnologiyalar universiteti

E-mail: Bakhtiyarkarshiev@mail.ru

USAT dotsenti v.b, PhD R Rasulov taqrizi asosida

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ENSURING THE NATIONAL SPIRITUAL SECURITY AND STABILITY OF SOCIETY

Annotation

The article analyzes theoretical, philosophical, and managerial principles aimed at harmonizing the socio-psychological, moral, political, and cultural systems of society, as well as transforming national values and spiritual ideas into a sustainable source of social development. It substantiates that the stability of security is determined not only by protecting society from external threats but also by its internal spiritual balance, ideological unity, and the level of information culture.

Key words: Security, stability, spiritual immunity, globalization, ideology, information culture, threat.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНО-ДУХОВНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И УСТОЙЧИВОСТИ ОБЩЕСТВА

Аннотация

В статье анализируются теоретические, философские и управленческие принципы, направленные на гармонизацию социально-психологических, нравственных, политических и культурных систем общества, а также на превращение национальных ценностей и духовных идей в устойчивый источник социального развития. Обосновывается, что устойчивость безопасности определяется не только защитой общества от внешних угроз, но и его внутренним духовным равновесием, идейным единством и уровнем информационной культуры.

Ключевые слова: Безопасность, устойчивость, духовный иммунитет, глобализация, идеология, информационная культура, угроза.

JAMIYAT MILLIY-MA'NAVIY XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamiyatning ijtimoiy-ruhiy, axloqiy, siyosiy va madaniy tizimlarini o'zaro uyg'unlashtiruvchi, milliy qadriyatlar va ma'naviy g'oyalarni ijtimoiy taraqqiyotning barqaror manbaiga aylantirishga qaratilgan nazariy, falsafiy va boshqaruv tamoyillari tahlil qilinadi. Unda xavfsizlikning barqarorligi jamiyatning faqat tashqi tahdidlarga qarshi himoyasi bilan emas, balki ichki ma'naviy muvozanati, g'oyaviy birligi va axborot madaniyati bilan belgilanishi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Xavfsizlik, barqarorlik, ma'naviy иммунитет, globallashuv, mafkura, axborot madaniyati, tahdid.

Kirish. Jamiyat milliy-ma'naviy xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashning metodologik asoslari – bu jamiyatning ijtimoiy-ruhiy, axloqiy, siyosiy va madaniy tizimlarini o'zaro uyg'unlashtiruvchi, milliy qadriyatlar va ma'naviy g'oyalarni ijtimoiy taraqqiyotning barqaror manbaiga aylantirishga qaratilgan nazariy, falsafiy va boshqaruv tamoyillari[1] tizimidir. Mazkur asoslar jamiyatning ma'naviy иммунитетini mustahkamlash, ijtimoiy ongini milliy manfaatlar ruhida shakllantirish hamda global tahdidlarga nisbatan axborotiy, mafkuraviy va madaniy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlangan metodologik tizimning markazida milliy qadriyatlar konsepsiyasi turadi. Chunki har qanday jamiyatning barqarorligi uning qadriyatlar tizimining mustahkamligiga, ularning jamiyat ongidagi ichki integratsiyasiga bog'liq. Metodologik yondashuvda "qadriyatlar jamiyatni birlashtiruvchi ma'naviy kod, insonni esa ma'naviy mas'uliyatli subyekt sifatida shakllantiruvchi omil"[2] sifatida talqin etiladi. Shuning uchun milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashning metodologik asoslari, eng avvalo, aksiologik yondashuvga tayanadi. Bu yondashuvda inson va jamiyat munosabatlari ma'naviy mezonlar asosida baholanadi, har bir ijtimoiy faoliyatning maqsadi milliy g'oya bilan uyg'unlikda aniqlanadi. Ikkinchi metodologik yo'ndashuv -

ijtimoiy-madaniy yondashuv hisoblabadi. U jamiyatni ijtimoiy-madaniy organizm sifatida bir butun holatda ko'radi, ya'ni siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jarayonlarni alohida ajratmasdan, ularning bir-biriga bo'lgan o'zaro ta'siri orqali milliy barqarorlik shakllanadi. Shu yondashuvda milliy madaniyat va an'analari global jarayonlar fonida jamiyatning ichki barqarorlik mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa, ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashda madaniy merosni tiklash, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish zaruratini belgilaydi. Uchinchi metodologik asos bu - axborot-falsafiy yondashuv hisoblanib, u axborot muhitida milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashga qaratiladi. Axborot globallashuv davrida asosiy ijtimoiy resursga aylangan bir paytda, ma'naviy xavfsizlikning eng muhim sharti – Inson ongini axborot manipulyatsiyalaridan himoya qilishdir. Bu yondashuvda inson ongining axborot tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va axborotdan ma'naviy foyda chiqarish qobiliyati jamiyat barqarorligini saqlashning asosiy mexanizmi sifatida ko'riladi. "Ma'naviyat" asosiy tushunchalar lug'atida "ma'naviy xavfsizlik – inson, xalq va jamiyat a'zolarini ma'naviy xurujlar, g'oyaviy tahdidlardan himoyalash tizimini ifodalovchi tushuncha. Ma'naviy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida umummilliy

manfaatlarning himoya qilinishga yo'naltirilgan faoliyatdir"[3] - deya ta'rif berilgan.

Metodologik jihatdan qaraganda, milliy-ma'naviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash davlat, jamiyat va shaxsning uzviy hamkorligiga tayanadi. Davlat - siyosiy-ideologik himoya mexanizmlarini yaratadi. Jamiyat - axloqiy meyorlarni mustahkamlaydi. Shaxs - ma'naviy mas'uliyatni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu uchlik bir-birini to'ldirgan holda milliy barqarorlikning sotsiomadaniy tizimini tashkil etadi. Shunday qilib, jamiyat milliy-ma'naviy xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashning metodologik asoslari - bu ijtimoiy ong, ma'naviyat va siyosiy barqarorlikning bir butun tizim sifatida ishlashini ta'minlaydigan, milliy qadriyatlar va global tafakkur o'rtasida uyg'unlik yaratuvchi falsafiy-nazariy yondashuvdir[4]. Bu metodologiya orqali jamiyat o'zining tarixiy ildizlarini asrab, zamonaviy taraqqiyot jarayonida milliy identitetni yo'qotmasdan, balki uni yangilangan shaklda rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Ma'naviy xavfsizlik masalasining falsafiy asoslariga murojaat etar ekan, A.Erkayev "ma'naviyat jamiyatning ichki barqarorligini ta'minlovchi asosiy kuch bo'lib, u izdan chiqqan sharoitda ijtimoiy tizimlar ham beqarorlashadi"[5] deb ta'kidlaydi. Ushbu fikr metodologik jihatdan muhim bo'lib, ma'naviy xavfsizlikni jamiyat barqarorligining markaziy omili sifatida ko'rsatadi. Biroq tanqidiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, muallif asosan ma'naviy jarayonlarning ichki tomoniga urg'u berib, zamonaviy texnologiyalarning bu jarayonlarga ko'rsatayotgan tizimli va tezkor ta'sirini yetarli darajada konseptual tahlil qilmaydi. Holbuki, bugungi raqamli muhitda ma'naviyat nafaqat ichki ijtimoiy munosabatlar, balki algoritmik axborot oqimlari orqali ham shakllanmoqda. Jamiyat barqarorligi va xavfsizligi masalasiga siyosiy-falsafiy nuqta nazardan yondashgan Sh.M.Mirziyoyev "millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va ijtimoiy hamjihatlik jamiyat barqarorligining eng muhim omili"[6] ekanini qayd etadi. Ushbu yondashuvning kuchli tomoni shundaki, u milliy-ma'naviy xavfsizlikni faqat madaniy yoki axloqiy hodisa emas, balki davlat va jamiyat barqarorligining strategik resursi sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, ilmiy-tanqidiy jihatdan qaralganda, mazkur fikr normativ-siyosiy xarakterga ega bo'lib, uni chuqur metodologik modelga aylantirish uchun texnologik boshqaruv, axborot xavfsizligi va raqamli madaniyat bilan integratsiyalash zarurati ochiq qolmoqda.

Metodlar. Bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi aloqani falsafiy jihatdan izohlagan J.Lokk "turli qarashlarga toqat qilish ijtimoiy tinchlikning zaruriy sharti"[7] ekanini ta'kidlaydi. Ushbu fikr bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, metodologik jihatdan bag'rikenglikni ma'naviy xavfsizlikning axloqiy asosi sifatida ko'rsatadi. Ammo tanqidiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, Lokkning konsepsiyasi asosan huquqiy va diniy bag'rikenglik doirasida cheklanib, zamonaviy texnologiyalar orqali tarqalayotgan manipulyativ axborot va "ommaviy madaniyat"ning destruktiv ta'sirlarini hisobga olmaydi.

Globalashuv sharoitida ma'naviy xavfsizlikka tahdidlar masalasini tahlil qilgan O.Maxamatov "axborot xurujlari va ommaviy madaniyat yoshlar ongida begonalashuv va axloqiy degradatsiyani kuchaytiradi"[8] deya xulosa qiladi. Bu fikr real ijtimoiy jarayonlarni aniq ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga, ilmiy-ijodiy tanqid shuni talab etadiki, "ommaviy madaniyat"ni mutlaq salbiy hodisa sifatida talqin qilish o'rniga, uni selektiv tahlil qilish, ya'ni texnologiyalar orqali tarqalayotgan madaniy kontentning konstruktiv va destruktiv qatlamlarini farqlash metodologiyasini ishlab chiqish lozim. Zamonaviy texnologiyalar hamda ma'naviy jarayonlar o'rtasidagi

munosabat masalasida K.Yaspers "insoniyat kelajagi global mas'uliyatni anglash darajasiga bog'liq"[9] ekanini ta'kidlaydi. Ushbu fikr metodologik jihatdan muhim bo'lib, milliy-ma'naviy xavfsizlikni global jarayonlardan ajratib bo'lmashini ko'rsatadi. Biroq tanqidiy nuqtai nazardan, Yaspersning yondashuvi abstrakt darajada qolib, aniq texnologik mexanizmlar va institutsional yechimlarni ko'rsatib bermoqchi, bu esa uning amaliy qo'llanish imkoniyatini cheklaydi. Bundat sharoitda, jamiyat milliy, ma'naviy xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashning metodologik asosiy ma'naviy jarayonlarning ichki mantiqi bilan hozirgi zamonaviy texnologiyalarning o'zaro ta'sirini yagona tizimda tahlil qilishni talab etadi. Ma'naviyat bu jarayonda faqat meros yoki an'ana emas, balki raqamli muhitda qayta ishlab chiqilayotgan dinamik qadriyatlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Texnologiyalar esa, xavf manbai emas, balki to'g'ri boshqarilgan taqdirda ma'naviy xavfsizlikni mustahkamlovchi vositaga aylanishi mumkin. Shu bois metodologik yondashuv milliy qadriyatlar, umuminsoniy tamoyillar va innovatsion texnologiyalarni uyg'unlashtirgan holda jamiyat barqarorligini ta'minlashga qaratilishi lozim.

Tahlil va natijalar. Jamiyatning milliy-ma'naviy xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash masalasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda faqat normativ yoki ideologik muammo sifatida emas, balki murakkab metodologik tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tizimda jamiyatning tarixiy xotirasi, kollektiv ong, qadriyatlar iyerarxiyasi, axborot muhiti, siyosiy-ijtimoiy institutlar va shaxs ma'naviy immuniteti o'zaro dialektik aloqada talqin etiladi. Mazkur yondashuvda milliy-ma'naviy xavfsizlik faqat tashqi tahdidlarga qarshi passiv himoya emas, balki ichki ijtimoiy barqarorlikni ishlab chiqaruvchi faol mexanizm sifatida tushuniladi. Shu nuqtai nazardan, A.N.Aminova jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida ma'naviyatni metodologik tayanch sifatida baholab, "ijtimoiy barqarorlikning asosiy sharti - bu jamiyat a'zolarining axloqiy meyorlar va ma'naviy qadriyatlarga ongli ravishda amal qilishidir", deya ta'kidlaydi[10]. Bu fikr metodologik jihatdan ma'naviyatni normativ-aksialogik tizim sifatida belgilaydi va uni ijtimoiy xavfsizlikning ichki resursi sifatida ko'rsatadi. Biroq ushbu yondashuvning zaif tomoni shundaki, muallif ma'naviy barqarorlikni ko'proq madaniy-ma'rifiy omillar bilan cheklab, texnologik va raqamli muhitda yuzaga kelayotgan yangi xavf shakllarini metodologik jihatdan yetarlicha chuqur tahlil qilmaydi. Bu holat zamonaviy jamiyat sharoitida ma'naviy xavfsizlikni kompleks tushinishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Milliy-ma'naviy xavfsizlikning metodologik asoslarini chuqurlashtirishda B. E. Toshboyevning milliy xarakter haqidagi qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. U "milliy xarakter jamiyatning ichki barqarorligini ta'minlovchi tarixiy-ijtimoiy mexanizm bo'lib, u tashqi madaniy bosimlarga qarshi ma'naviy filtr vazifasini bajaradi", deb yozadi.[11] Ushbu yondashuv milliy xarakter fenomenini faqat etnopsixologik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy xavfsizlikning strukturaviy elementi sifatida metodologik asoslaydi. Shu bilan birga, tanqidiy jihatdan aytganda, muallif milliy xarakter dinamikasini asosan an'anaviy ijtimoiy muhit bilan bog'laydi va globalashuv sharoitida shakllanayotgan gibrid identitetlar masalasini yetarli darajada ochib bermoqchi. Bu esa metodologik modelning zamonaviylik darajasini qisman cheklaydi. Jamiyat milliy-ma'naviy xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash masalasi zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot sharoitida murakkab, ko'p qatlamli va uzviy bog'langan jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonning metodologik asoslari jamiyatning ichki ma'naviy tuzilishi, ijtimoiy ong holati, qadriyatlar tizimi hamda tarixiy xotira va zamonaviy rivojlanish ehtiyojlari o'rtasidagi

mutanosiblikni ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar majmuasini ifodalaydi. Milliy-ma'naviy xavfsizlik bu faqatgina ma'naviy tahdidlardan himoyalaniish emas, balki jamiyatning o'zini o'zi anglash, o'zligini saqlash va barqaror rivojlanish salohiyatini ichki imkoniyatlar asosida mustahkamlash jarayonidir. Shu bois, metodologik jihatdan bu masalaga yondashuv tizimli, uzluksiz va kompleks xarakterga ega bo'lishi zarur.

Mazkur metodologiya, avvalo, jamiyat hayotida ma'naviy qadriyatlarining markaziy o'rin tutishini e'tirof etishga asoslanadi. Ma'naviy qadriyatlar jamiyat barqarorligining ichki tayanchi bo'lib, ular ijtimoiy munosabatlarni me'yoriy jihatdan tartibga soladi, ijtimoiy birdamlik va mas'uliyat hissini mustahkamlaydi. Milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash metodologiyasi aynan shu qadriyatlarining jamiyat ongida mustahkam qaror topishi, kundalik hayot va ijtimoiy amaliyotda faol namoyon bo'lishini taqozo etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, milliy-ma'naviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash metodologiyasida muhim o'rin tutuvchi yana bir jihat - vorisiylik va uzviylik tamoyilidir. Jamiyatning tarixiy-ma'naviy tajribasi zamonaviy taraqqiyot jarayonida uzilib qolmasdan, yangicha mazmun va shakllar bilan boyitilishi

zarur. Bu holatda metodologiya an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy ehtiyojlar o'rtasida qarama-qarshilik emas, balki o'zaro to'ldiruvchi munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Aynan shu uzviylik jamiyat barqarorligining uzoq muddatli asosini yaratadi va milliy o'zlikni saqlagan holda ochiq ijtimoiy rivojlanishga imkon beradi. Metodologik tahlil shuni ko'rsatadiki, milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashda ijtimoiy institutlar faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi, biroq bu faoliyat mexanik yoki formallashtirilgan ko'rinishda emas, balki ma'naviy maqsad va mazmun bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilishi lozim. Bunday yondashuv jamiyatda ma'naviy barqarorlikni sun'iy ravishda emas, balki tabiiy ijtimoiy jarayon sifatida qaror toptiradi. Shu tariqa, metodologiya jamiyatning ichki resurslarini faollashtirishga, shaxs va jamiyat manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Jamiyat milliy-ma'naviy xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashning metodologik asoslari yaxlit, tizimli va dinamik yondashuvga tayangan holda shakllanadi. Bu metodologiya jamiyatning ma'naviy mohiyatini anglash, qadriyatlarini real ijtimoiy amaliyot bilan bog'lash, tarixiy vorisiylikni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish va ichki ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish orqali barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, aynan shu jihatlari bilan u jamiyat taraqqiyotining poydevoriy omiliga aylanadi.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 136–142.
2. Современное образование как открытая система (под ред. Н.Г. Ничкало, Г.Н. Филонова, О.В. Суходольской-Кулешовой). – “Институт научной и педагогической информации РАО, “Юркомпи”, 2012 г.
3. Маънавий хавфсизлик // Маънавий асосий тушунчалар изоҳли луғати. -Т.: Ф.Фулум, 2009. - Б. 404.
4. Некоторые проблемы обеспечения духовной безопасности Узбекистана в контексте “От национального возрождения - к национальному прогрессу”.
5. Abdulla Erkeyev. Ma'naviyat – millat nishoni. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997. – B. 34–36.
6. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnoma. – Toshkent, 2022. – 15-bet.
7. Локк Д. Письма о религиозной терпимости. – М.: РГГУ, 2000. – с. 72.
8. Maxammatov O. Globallashtirish jarayonlarida O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-mafkuraviy xavfsizligi. – Samarqand, 2022. – 18-bet.
9. Ясперс К. Смысл и цель истории. – М.: Политиздат, 1991. – с. 141.
10. A. N. Aminova. Mustaqil O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida ma'naviyatning o'rni. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – B. 5–8.
11. B. E. Toshboyev. Milliy xarakter shakllanishi va takomillashuvining ijtimoiy-falsafiy masalalari. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2018. – B. 5–8.
12. Rasulov R. Zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarning jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlarga bo'lgan ta'siri //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.12. – C. 176-179.
13. Rasulov, Rustambek. “O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri.” «ACTA NUUZ» 1.1.4. 1 (2025): 169-171.
14. Tursunov O., Rasulov R. O. Zamonaviy dasturlash muhitida arifmetik amallarni avtomatlashtirish: c# winforms asosida kalkulyator modeli //Академические исследования в современной науке. – 2025. – Т. 4. – №. 19. – С. 23-26.
15. Khaydarova M., Rasulov R. Positive and negative consequences of the globalization process //International Conference on Arts, Society & Humanities. – 2025. – Т. 1. – №. 3. – С. 35-39.
16. Rasulov R. The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 48. – С. 124-132.
17. Odilovich, Rasulov Rustambek. “Cultural basics of education and the role of youth in it. Philosophy And Life International Journal. ISSN 2181-9505. Doi jurnal 10.26739/2181-9505.”
18. Odilovich R. R. The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2024. – Т. 37. – С. 32-41.
19. Odilovich, Rasulov Rustambek. “Yoshlar bilan ishlash tizimida ma'naviy-mafkuraviy omillarning yoshlar ongiga ta'siri.” International Journal of Scientific Research 2 (2023): 147-152.
20. Rasulov R. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.4. 1. – C. 169-171.171.
21. Khaydarova M., Rasulov R. Positive and negative consequences of the globalization process //International Conference on Arts, Society & Humanities. – 2025. – Т. 1. – №. 3. – С. 35-39.